DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-58 Pages: 513-519

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



A STUDY OF VERBS IN MAHMUD ZAMAXHSHARI'S "AL-MUFASSAL"

Dilafro'z A. Otakhanova
1st year doctoral student
Department of Translation Theory
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: "Ustodu-l-arab wal-l ajam", "Al-Mufassal", Sibawayhi, Al-Kitab", "Unmuzaj", verbs, correct and incorrect verbs.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article is devoted to the study of verbs in Mahmud Zamakhshari's "Al-Mufassal". First, the work "Al-Mufassal" is described in detail, including the copies preserved in manuscript funds and by whom it was studied. Then, the classification of verbs is presented in the "verb chapter" of the work "Al-Mufassal". The principles of explaining verbs in the work "Al-Mufassal" are directly compared with the work of Sibawayhi.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING "AL-MUFASSAL" ASARIDA FE'LLAR TADQIQI

Dilafro'z A. Otaxanova
1-kurs doktoranti
Tarjima nazariyasi kafedrasi
Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston,Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: "Ustodu-l-arab va-l-ajam", "Al-Mufassal", Sibavayhi, Al-Kitob", "Unmuzaj", fe'llar, tog'ri va notog'ri fe'llar.

Annotatsiya: Ushbu maqola Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asaridagi fe'llar tadqiqigsaa bag'ishlanadi. Dastlab "Al-Mufassal" asari uning qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalari va kimlar tomonidan o'rganilganligi batafsil yoritiladi. So'ngra "Al-Mufassal" asarining "fe'l bobi" qismida fe'llarning tasnifi keltirib o'tiladi. "Al-Mufassal"asaridagi fe'llarning yoritilish prinsiplari bevosita Sibavayhining "asari bilan

qiyoslanadi.

ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ В КНИГЕ «АЛЬ-МУФАССАЛ» МАХМУДА ЗАМАХШАРИ

Дилафроз А. Отаханова
аспирант 1-го года обучения
Кафедра теории перевода
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Устоду-ль-араб валь-ль-аджам», «Аль-Муфассаль», Сибавайхи, Аль-Китаб», «Унмузадж», глаголы, правильные и неправильные глаголы.

Аннотация: Статья посвящена изучению глаголов в книге Махмуда Замахшари «Аль-Муфассаль». Сначала в статье будет подробно рассмотрен труд Махмуда Замахшари «Аль-Муфассаль», включая копии, сохранившиеся в рукописных собраниях, и тех, кто его изучал. Затем в разделе «Глава о глаголах» «Аль-Муфассаля» представлена классификация глаголов. Принципы толкования глаголов в «Аль-Муфассале» напрямую сопоставимы с трудом Сибавайхи.

Kirish: Hozirgi kunda mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar natijasida ko‘plab o‘rta osiyolik olimlarining asarlari o‘rganilmoqda va ularning asarlari bo‘yicha turli xil tadqiqotlar va izlanishlar olib borilmoqda. Yaqin sharqda “Ustodu-l-arab va-l ajam” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy O‘rta Osiyodagi eng mashhur olimlardan biri hisoblangan. U Xorazmda tug‘ilib katta bo‘lgan. Shu sababdan ham u “Faxru Xvarazm” (Xorazm faxri) (https://www.wikipedia.org) nomi bilan ulug‘langan.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug‘atshunoslik, jug‘rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis va fiqh ilmiga oid asarlar yaratdi. Zamaxshariy yozib qoldirgan asarlari soni borasida turli xil qarashlar mavjud

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: N. Sulaymonova o‘zining “Barkamol shaxs tarbiyasida Mahmud Zamaxshariy asarlarining ahamiyati” nomli monografiyasida quyidagi qimmatli ma’lumotlarni keltiradi: “Akademik Alibek Rustamov o‘zining “Mahmud Zamaxshariy” (Rustamov, 1971, pp, 10-12) nomli risolasida allomaning 19 ta asarini sharhlash bilan birga nomi ma'lum, lekin hali topilmagan 19 ta asar nomini keltirgan.

Istanbulda chop etilgan Islom ensiklopediyasida (Islam ansiklopedisi. 1986, pp. 511-514) Zamaxshariyning 54 ta asari haqida ma'lumotlar bor. Ushbu kitobda Zamaxshariy asarlari islomshunoslik, tilshunoslik, lug‘atshunoslik, adabiyotshunoslik kabi sohalar bo‘yicha

tasniflangan va sharhlangan. Ularning ayrimlariga batafsil izoh berilgan, ayrimlarining esa faqatgina nomlari keltirilgan. Sharqshunos olim U. Uvatov "Nozik iboralar" (Abulqosim Mahmud Zamaxshariy. 1992, pp. 25-45) kitobida iroqlik olim Fozil Solih as-Samaroiyning fikrlariga tayangan holda Zamaxshariy asarlarining soni 50 dan ortiq deb ta'kidlaydi va ulardan 34 tasini sharhlab o'tadi. Bayrutda nashrdan chiqqan Zamaxshariyning "Asosu-l-balog'a" (Zamaxshariy. 1998, pp. 1-10) asarining muqaddima qismida noshir Muhammad Bosil Uyun as-Sud olimning 65 ta asarining nomini sanab o'tgan. Mazkur nashrda ayrim asarlarning mavzusi, qayerda, qachon chop etilganligi, qo'lyozma va bosma nusxalari, qaysi jamg'armalarda saqlanishi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan." (N. Sulaymonova, 2021, pp. 14-15).

O'zbekiston milliy ensiklopediyasidagi Zamaxshariy haqidagi maqolada olim asarlarining soni xususida shunday deyilgan: «Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, tafsir, hadis, fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yaratgan» (Rustamov A., Uvatov U., 2002, pp. 557).

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan qo'lyozma asarlarni o'rganish jarayonida Zamaxshariy tomonidan yaratilgan 71 ta asar nomini aniqladik. Biroq ularning orasida nomi ma'lum, lekin topilmagan asarlar ham mavjud. Demak, Zamaxshariy asarlarining umumiy soni bundanda ko'p bo'lishi mumkin. (N.Sulaymonova, 2021, pp. 15) Shuningdek, u arab tilshunosligi yo'nalishida ham bir qator asarlar yaratdi. "Muqaddamatu-l-adab", "Al-Mufassal", "Asos al-balog'a" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Maqolada Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asaridagi fe'llarni tadqiq etishda qiyosiylik, ilmiy xolislik, tizimlilik (sistemalilik), xronologik, grammatik taqqoslash, tarixiy-tizimlilik uslullaridan foydalanildi.

Natijalar: Zamaxshariy arab tili nahvi olamida o'chmas va takrorlanmas iz qoldirgan. Bu unining nafaqat o'rta osiyolik arabshunoslar uchun, balki butun arab diyori uchun haligacha dasturul-amal bo'lib kelayotgan, arab grammatikasi, morfologiyasi va sintaksisiga bag'ishlangan o'zining yirik asari "Al-Mufassal fi-n-nahv" asarining yozishidir. "Al-Mufassal" asari bir yarim yil ichida Makkada yozilgan. "Al-Mufassal" asarining bir nechta qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Eng ko'p qo'lyozmasi saqlangan fond bu Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti hisoblanadi. Mamlakatimizda "Al-Mufassal" asari qo'lyozmalarini olimlardan N. Sulaymonova tadqiq etgan va o'zining "Mahmud Zamaxshariyning Toshkent fondlarida saqlanayotgan asarlarning manbashunoslik tahlili" (N. Sulaymonova, 2020, pp. 136.) nomli monografiyasida bu haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan.

Arab grammatikasiga oid asarlar ko'p va ular mazmun-mohiyatiga ko'ra mukammal va mashhur bo'lsa-da, Zamaxshariyning "المصل" asari uning zamondoshlari fikricha, "arab tili

grammatikasi bo‘yicha yaratilgan eng yaxshi kitobdir”. Yana bir olim uni “nozik terilgan durga” o‘xshatadi. (Qosimova S., 2019, pp. 102).

Al-Mufassal asari dastlabki bobi “tamhid”(تمهيد) dan, ya’ni muqaddima (kirish) qismidan boshlanadi. Kitobning bu bobida Zamaxshariyning hayoti, yozgan asarlari, “Al-Mufassal”asari haqida umumiy ma’lumotlar, kitobning qo‘lyozma nusxalari so‘z va kalom ilmi ma’nolari kabi boblar keltiriladi.

Asarning asosiy qismi to‘rt bobdan tashkil topgan. Birinchi qism arab tilidagi “ism” (اسم) so‘z turkimiga bag‘ishlanadi. Bu bobda ismga xos qoidalar, ularning kelishikda turlanishi, sonlarda va jinsda o‘zgarishi kabi grammatik qoidalar aks etgan.

Asarning ikkinchi qismi arab tilidagi eng katta so‘z turkumi bo‘lgan “fe’l” (فغل) ya’ni fe’llar va ularning tasnifiga bag‘ishlangan. Bu bobda fe’llarga oid hamma qoidalar, ularning uchta zamonda kelishi, ularning ifodalanishi, o‘timli va o‘timsiz fe’llar, uch o‘zakli va to‘rt o‘zakli fe’llar, ularning hosila boblari batafsil keltirib o‘tilgan.

“Al-Mufassal” (" المفصل في علوم العربية " الزمخشري) asarining uchinchi bobi “harf”(حرف) so‘z turkumiga bag‘ishlanadi. Arab tilida “harf” so‘z turkumi nafaqat hurufu jarlardan(ko‘makchilardan), balki bog‘lama va yuklamalardan ham iboratdir. Bu xususiyati bilan “harf” so‘z turkimi o‘zbek tilidagi “yordamchi so‘z turkumi”ga o‘xshab ketadi. Zamaxshariyning asarida “Harf” so‘z turkumi ham keng bayon qilingan va ko‘plab misollar keltirilgan.

“Al-Mufassal” asarining o‘ziga xos va boshga arab grammatikasiga bag‘ishlangan asarlardan asosiy farqlaridan biri bu asarning to‘rtinchi bobi sifatida fonetik qoidalarning keltirilishidir. Bu bobda Zamaxshariy fonetika (talaffuz)ning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan idg‘omning turlari, vaqf(to‘xtash)ning bir qator qoidalari keng yoritiladi.

Zamaxshariyning “Al-Mufassal” bundan qariyb ming yil oldin yozilgan bo‘lsa-da haligacha arabshunos olimlarga dasturul amal bo‘lib kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, biror arabshunos olim Zamaxshariydan oldin arab tili grammatikasini bir tizimga solib chiqmagan. Arab tilidagi so‘zlarni asosiy uchta katta so‘z turkumiga ajratib, ularning har birini alohida bob qilib tasniflab, arab tili grammatikasini bir tizimga solgan olim ham Zamaxshariy hisoblanadi. Uning “Al-Mufassal” asari esa ana shunday arab grammatikasini tizimlashtirilishini o‘z ichiga olgan ilmiy manbadir.

Zamaxshariy o‘zining “Al-Mufassal fin-nahv” asari orqali ko‘plab bahs-munozaraga sabab bo‘luvchi, ayniqsa fonetika sohasidagi masalalarni bartaraf etdi. Boshqacha qilib aytganda “Al-Mufassal fin-nahv” o‘z zamonining ayniqsa o‘z sohasining “shedevri” deya tan olindi. Zamaxshariy o‘ziga xos va takrorlanmas uslubi asarning har bir jabhasida sezilib turadi. Zamaxshariy boshqa grammatik asar yozgan mualliflardan, Xususan Sibavayhining “Al-Kitob”

asaridan asosiy ajralib turadigan juhati shuki, muallif arab tilidagi shu paytgacha biror bir tizimga solinmagan, guruhlanmagan arab tili grammatikasini bir tizimga solib, arab tilidagi barcha so‘zlarni uchta katta guruhga ajratdi(ism, fe’l, harf).

“Al-Mufassal” asarining yana bir o‘ziga xos jihati shundaki bu asarda boshqa grammatik asarlardan farqli o‘laroq harflar tovushi va talaffuzi(fonetika) ham alohida bob qilib ajralib chiqqan va unda har bir tovush va uning talaffuzi, harflar va uning maxrajlari alohida tasvirlangan. “Al-Mufassal” asarining yozilishiga qadar esa fonetika alohida o‘rganilar va u grammatikaning bir qismi sifatida o‘rganilmas edi. Masalan, ibn Sinoning fonetikaga bag‘ishlangan asari bo‘lib, bu asarda arab harflarining talaffuzi tabobat ilmi bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Zamaxshariy “Al-Mufassal fin-nahv” asarida so‘z turkumlarini uchta katta guruhga ajratadi. bular : ism, fe’l, harf. Zamaxshariy ism so‘z turkumini 12 faslga, fe’l so‘z turkumini 10 faslga, harf so‘z turkumini esa 23 faslga bo‘lgan.

Fe’llar bobi – باب الفعل

“Al-Mufassal fi-n-nahv” asarining ikkinchi bobi باب الفعل “babu-l-fi’li” “Fe’l bobi” deb nomlangan. Bu fe’l bobi to‘liq fe’llar va ularning xususiyatlariga bag‘ishlangan. Bu bob fe’l so‘z turkumiga ta’rif berish bilan boshlangan bo‘lib, Zamaxshariy arab tilidagi fe’l so‘z turkumini shunday izohlaydi :

”الفعل ما دل على اقتران حدث بزمان و من حصانصه صحة دخول قد و حرفي الاستقبال و الجوازم و لحوق المتصل البارز من ضمائر وتاء التأنيث الساكنة “

“Fe’l zamon bilan bog‘liq hodisani anglatadi, faqat ungagina xos xususiyatlar: qad yuklsamasini, kelasi zamon va shart mayli yuklamalarini oladi, bosh kelishikdagi birikma olmoshlarini va muannas jinsining sukunli va “t” harfini qabul qiladigan so‘zdir” (Kasimova, 2019, p. 102).

Mazkur bobdan quyidagi fe’l ko‘rinishlari o‘rin olgan:

1-fasl - الماضي –al-madi – “O‘tgan zamon fe’li” deb nomlangan. Bu bobda o‘tgan zamon fe’llarining uch o‘zakli va to‘rt o‘zakli bolishini, fe’llar sulosiy mazid va sulosiy mujarradga (uch o‘zakli fe’llarning hosila boblari) bo‘linishini hamda ularning shaxs-sonda tuslanib birikma olmoshlari olishini muallif o‘z asarida bayon etadi

2- faslda المضارع – al-mudari - “Hozirgi- kelasi zamon fe’li “ bayon qilingan. Bu bobda hozirgi-kelasi zamon fe’llarining uch o‘zakli va to‘rt o‘zakli bolishini, fe’llar sulosiy mazid va sulosiy mujarradga (uch o‘zakli fe’llarning hosila boblari) bo‘linishini, hamda hozirgi zamonning asosiy belgisi o‘tgan zamon fe’lining oldiga “ya” qo‘shimchasi qoshilishidadir deya muallif hozirgi zamonni ifodalagan bo‘lsa, kelasi zamonni ifodalash uchun hozirgi zamon

shaklining oldiga "sa" hamda "savfa" yuklamalarining qoyilishi kifoyadir. Bunda " sa" yuklamasi yaqin kelajakni bildirsa, "savfa" yuklamasi uzoq kelajakni bildiradi.

3- faslda الامر - al-amru – deb nomlangan uchinchi faslda buyruq mayli izohlangan. Fe'lning bu shakli hozirgi kelasi zamon fe'lining oxirini sukunlash va oldidagi "ya" qo'shimchasini olib tashlab, o'rta o'zak harfiga moslab vaslali hamza qo'yish orqali hosil qilinadi.

4- fasl المتعدى وغير المتعدي al-mutaaddi va g'ayru-l- mutaaddi – "O'timli va o'timsiz fe'llar". Ushbu mavzu o'z navbatida yana ikki guruhga bo'lib bayon qilingan:

a) المتعدى al-mutaaddi – "O'timli fe'llar"

b) غير المتعدي va g'ayru – l mutaaddi "O'timsiz fe'llar"

Asarda o'timli fe'llar deb o'zidan keyin vositasiz to'ldiruvchini talab qilidigan fe'llarga aytiladi deya izoh berilgan. O'timsiz fe'llar esa o'zidan keyin vositali to'ldiruvchini talab qiladigan fe'llardir.

5- fasl المبني للمفعول - al-mabni li-l-mafuli - "Majhul darajadagi fe'llar" deb nomlangan. Majhul darajadagi fe'llar .. qolipida hosil qilinib ish harakatning noma'lumligini, ya'ni kumdir tomonidan bajarilganligini bildiradi.

6- fasl أفعال القلوب - afalu-l- qulubi - O'ylash, hisoblash ma'nosidagi fe'llar" deb atalgan. Muallif bunday fe'llarning 7tasini sanab o'tadi. Ular: ظن - zonna, حسب - hasaba, خلاxola, زعمza'ama, علم- a'lima, وجد– vajada, رأى– roa.

7-fasl أفعال الناقصة - af'alu-n-naqisati - "Yordamchi fe'llar" deb nomlanadi. Ushbu faslda muallif كان – kana, صار - sora, أصبح- asbaha, أضحى adha, ظل – zolla,بات bata, ما زال ma zala, ما برح ma bariha, ما فتئ –ma fatia, ما أنفكma anfakka, ما دامma dama va ليس laysa fe'llarinini batafsil misollar yordamida izohlangan.

8- fasl – أفعال المقاربة – af'alu-l- muqarobati – "Ish harakatning yaqinligini bildiruvchi fe'llar" faslida عسى - asa, كاد – kada, أوشك avshaka va قرب - qoruba fe'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

9-fasl فعلا المدح والذم fila-l- madhi va-z-zammi – "Olqish va qarg'ishni ifodalovchi ikki fe'l". Ushbu faslda نعم – ni'ma va بئس bi'sa,- حبذا habbaza va - ساء sa'a – fe'llari izohlangan.

10- fasl فعلا التعجب – fi'la –t-taajjubi – Taajjubni ifodalovchi ikki fe'l". Unda bunday fe'llar ما أفعل - ma af'ala va أفعل ب afil bi – vaznidan hosil bo'lishi bayon qilingan. Asarning fe'llar bobi uning birinchi – ismlar qismini mantiqan to'ldiradi va boyitadi.

Xulosa. Al-Mufassal asarida fe'l bobidan so'ng harf so'z turkumi bobi va fonetika bobi keltiriladi. Yuqorida ko'rib turganimizdek Az-Zamaxshariy fe'llar bobini o'z asarida yoritar ekan dastavval fe'llarni grammatik va ma'no xususiyatiga ko'ra guruhlarga ajratib o'rganish va o'rgatish yanada soda va qulay shakl ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Darhaqiqat , Al-

Mufassal asarining tili boshqa ungacha yozilgan grammatik asarlargsa qaraganda sodda va o‘quvchiga ham chunarlidir. Buning asosiy belgisi sifatida esa har bir bobning bir tizimga solinib guruhlarga ajratilganligi hamda har bir guruhdagi terminlarning barchasi izohlanganligidan deb tushinish mumkin.

Bundan ko‘rishimiz mumkunki, Mahmud Zamaxshariyning asarlarida fe’llar va unga oid masalalar keltirilgangan bo‘lsada, “Al-Mufassal” asarida fe’llar bobi to‘liq grammatik jihatdan yoritilganini ko‘rishimiz mumkin. Shunday qilib, “Al-Mufassal” asarida fe’llar grammatik-ilmiy jihatdan talqin qilingan bo‘lsa, “Muqaddamatu-l-adab” asarida esa fe’llarning asarda qay tarzda keltirilganligi, fe’llarning qanday turlari mavjudligi asosan lug‘at shaklida bayon etilgan.

Shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, “Al-Mufassal” asarida fe’llarning yorilish prinsiplari, ularning grammatik xususiyatlarining bayon qilinishi hozirgi kungacha yaratilayotgan arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan kitoblatning asosi bo‘lib kelmoqda. Bu esa Mahmud Zamaxshariyning bizga qoldirgan ilmiy merosi juda qimmatli ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Abu-l-Qasim Mahmud Zamakhshari.(1992) Delicate phrases. Nozik iboralar. – Tashkent: Kamalak. (in Uzbek)
2. Rustamov A. (1971) Mahmud Zamakhshari. Mahmud Zamaxshariy. – Tashkent: Fan. (In Uzbek)
3. Encyclopedia of Islam. Islam ansiklopedisi.13th edition (1986) Istanbul: Milli egitim basimevi (in Turkish)
4. Nosirova M. (2004) Unmuzaj fin-nahv dissertation. Unmuzaj fin-nahv dissertatsiyasi. Tashkent. (in Uzbek)
5. Zamakhshari. (1998) Asos-ul-baloga. Asos-ul-balag’a. J. 1. – Beirut: Dar-ul-kutub-il-ilmiyya. (in Uzbek)
6. Sulaymonova N. (2021) “The significance of Mahmud Zamakhshari's works in the education of a well-rounded person”. “Barkamol shaxs tarbiyasida Mahmud Zamaxshariy asarlarining ahamiyati”. Bayoz. Tashkent. (in Uzbek)
7. Rustamov A., Uvatov U. (2002) Zamakhshari. Zamaxshariy // National Encyclopedia of Uzbekistan. J. 3. Editorial staff: M. Aminov, B. Akhmedov and others – T.: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2002. – p. 557. (in Uzbek)
8. Sulaymonova N. (2020) “Source analysis of the works of Mahmud Zamakhshari stored in the Tashkent funds”. “Mahmud Zamaxshariyning Toshkent fondlarida saqlanayotgan asarlarning manbashunoslik tahlili”. Monograph. – Tashkent: Bayoz. (in Uzbek)

9. Kasimova S.S. (2019) Scientific research on the Arabic grammatical theory of Transoxiana linguists in the 11 th-13 th centuries. XI – XIII asrlarda Mavarounnahr tilshunoslarining arab Grammatik nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlari. Tashkent. (in Uzbek)

10. Zamxshariy. Al-mufassal fil-ulumi-l-arabiyati. Al-mufassal fil-ulumi-l-arabiyati. (in Uzbek)

11. Sibavayhi. (1988) Al-kitab. Al-kitab. (in Arabic)

12. https://www.wikipedia.org